TEXNOLOGIYA TA’LIMI FANIDA KASB-HUNARGA YO’LLASH DARSLASRINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH MAZMUNI

Sayfiyeva Umida Akmalovna

Sanarqand Davlat Pedagogika instituti “Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta’lim)” yo’nalishi magistranti

Anotatsiya: Mazkur maqolamda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya ta’limi fanida kasb-hunarga yo‘naltirish darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishning mazmuni, metodikalari va zamonaviy imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: Zamonaviy, o’quvchi, axborot-kommunikatsiya, rivojlantirish, qiziqish,kasbiy samaradorlik, mativatsiya, platforma, pedagog, individual.

Аннотация: В данной статье анализируются содержание, методологии и современные возможности организации уроков профессиональной ориентации в рамках технологического образования в общеобразовательных средних школах на основе инновационных технологий.

Ключевые слова: Современный, ученик, информационно-коммуникационный, развитие, интерес, профессиональная эффективность, мотивация, платформа, учитель, личность.

Abstract: This article analyzes the content, methodologies and modern

possibilities of organizing vocational guidance lessons in technology education in general secondary schools based on innovative technologies.

Keywords: Modern, student, information and communication, development, interest, professional efficiency, motivation, platform, teacher, individual.

Texnologiya ta'limi - o'quvchilarga innovatsion texnologiyalarni bilish, hayoti davomida foydalana olish va ularni yarata olishgacha bo'lgan bo'lgan o'qish izlanish imkoniyatini beradi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsadi har bir o'quvchiga individual ravishda kasb yoki mehnat faoliyati sohasini asosli va to'g'ri tanlashda yorda yordamlashishdir. Bu kabi maqsadlarni amalga oshirishimiz uchun avvalambor ilmli va kreativ kadrlar bilan birgalikda hozirgi davrda yoshlarimizga innovatsion texnologiyalar asosida dars jarayonlarini olib borishimiz shart bo'lib qoldi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida zamonaviy texnologialarni joriy etish va ularni amalda qo'llash muhim ahamiyat kasb etmoqda, ayniqsa texnologiya ta'limi fanida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish dars jarayonlarida asosiy o'rin tutmoqda. Kasb-hunarga yo'llash darslari asosan o'quvchilarni zamonaviy va yangi kasblar bilan tanishtirish, kasblarga bo'lgan qiziqishlarini va ko'nikmalarini shakllantirish maqsadlari asosida tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasining qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-maydagi qabul qilingan. Senat tomonidan 2020- yil 7-avgustda ma'qullangan 2-bob 16-moddasi Masofaviy ta'lim o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Masofaviy ta’limni tashkil etish tartibi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Mamlakatimiz president boshchiligida amalga tadbiq qilingan ushbu qaror yurtimizdagi barcha ta’lim olish istagidagilar va ta’limni rivojlantirish istagidagi barcha insonlarni quvontirdi desam mubolag’a bo’lmaydi. Sababi hozida rivojlanayotgan yurtimizni yanada rivojlantirish maqsadida qilingan qaror ekanligini juda yaxshi bilamiz. Innovatsion masofaviy ta’lim shakllari orqali indonlar istalgan joyidan dunyoviy ilmlarini oshirib ularni jahon standartlari darajasida va undan yuqori daraja buyuk shaxslar bo’lib yetishishlariga ko’makchi vazifasini bajaradi.

Innovatsion texnologiyalar o’quvchi yoshlarga dars mashg’ulotlarining yanada qiziqarli va foydali bo’lishini ta’minlovch vositalar hisoblanadi. Masalan, kompyuterlar, maxsus planshetlar, multimediya vositalari, elektron doskalar va boshqa texnologik vositalar yordamida aniqroq tushunish va o’zlashtirish imkonini beradi. Bu va bu kabi vositalar yoshlarning fikrlash qobilyatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda yakka tartib ishlashlari uchun mativatsiya ham beradi. O’quvchilar uchun yangi zamonaviy texnologiyalar yordamida darslarning olib borilishi uchun yangi metod va usullar kirib keladi. Masalan, Taqdimotlar, onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar va hokazolar yordamida qiziqarli va samaradorligi yuqori bo’lgan dars va mashg’ulotlar olib boriladi. O’quvchilar bunday platformalar orqali amaliy va labaratoriya mashg’ulotlarini o’sha mashg’ulot jarayonida hamda individual shaklda bajarishish va sinab ko’rish imkoniyatlariga ega bo’ladilar. Bundan tashqari o’quvchilar guruh bo’lib ishlash jarayonlarida ular o’rtasida muloqot va hamkorlikni kuchayadi.

Innovatsion texnologiyalarni tadbiq etishning afzalliklari:

— O’qituvchilarga dars mashg’ulotlarini ko’p qirrali o’tish imkoniyatini beradi;

—O’quvchilarning o’qishga bo’lgan qiziqishini oshiradi;

—Kasbiy va texnik ko’nikmalarni tezroq va samarali o’rganish imkoniyatini beradi;

—Ta’limning sifatini oshiradi;

—Zamonga mos zamonaviy kadrlarni tayyorlashda muhim vazifani bajaradi.

XULOSA

Hozirda rivojlanayotgan zamonda innovatsion texnologiyalarsiz hayotimizni tasavvur qilib bolmaydi. Xususan ta’lim sohasida ham yoshlarni kasb-hunarga yo’llash darslarida o’quvchilarning o’qishga bo’lgan qiziqishlarini va faol o’zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qilib qolmasdan, laboratoriya mashg’ulotlarini ham innovatsion texnologiyalar yordamida individual ravishda sinab ko’rib, so’ngra hayotda ham tajriba qilish imkoniyatini paydo qiladi. Bundan tashqari pedagog kadrlar uchun ham ish faoliyatlarida zamonaviy texnologialardan foydalanish bir muncha qulayliklar bermoqda. Shu boisdan rivojlangan mamlakatlar qatorida bo’lishimiz uchun birinchi navbatda ta’limni rivojlantirishimiz kerak. Zero kelajagimiz yoshlar qo’lida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, Toshkent 23.09.2020 yildagi 637-son;

2.Buxoro viloyati Buxoro tumani 19-maktab Texnologiya fani o’qituvchisi SH.Q.Rustamovaning Texnologiyan darslarida o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish nomli maqolasi, Buxoro O’zbekiston 2023.

3.Кушаков, Ф. А. (2022). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ФИЛОСОФИИ ТЕХНИКИ. World scientific research journal, 4(2), 74-80.